

KITOB VA KITOBXONLIK INSON MANAVIYATINI KO‘ZGUSI

O‘teniyazova Sulıwxan

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali

Annotatsiya

Mazkur maqolada Yangi Ózbekistonda mutolaa madaniyatini oshirish, kitobxonlik madaniyati, ilmiy-falsafiy va aksiolok tahlil masalalari tahlil qilingan.

Kalit sózlar: Renessans, mutolaa, tafakkur, intellekt, qadriyat, strategiya, fond, taraqqiyot, omil, aksiologiya, tahlil.

Taniqli adabiyotshunos olim va tarjimon Ozod Sharafiddinov dunyodagi yetti mójizaga chiroyli tárif berib: «Etti mójiza inson aqlining, tafakkurining, qalbining otashin madhiyasi, inson dahosining ulug‘ligiga qóyilgan mangu obida bólib kelmoqda. Biroq shunday bólsa-da olamda yana bir mójiza borki, uning buyukligi, muqaddasligini yetti mójizaning jamiki ulug‘vorligi, gózálligidan kamlik qilmaydi. Bu mójiza-kitobdir»

Óarb olimlaridan biri Labule “Taraqqiyotning umumiy kólamida har bir xalqning órni ósha xalq óqiyotgan kitoblarning soni bilan belgilanadi”, - deb tákidlagan edi. Qadriyatlarimizdan saboq chiqarmoóimiz lozim. Masalan, xonliklar davrida madrasalarda tahsil olayotgan toliblar ózlashtirishiga qarab uch guruhga bólingan: birinchi bosqich “Avvali ilm”dan boshlab, “Aqvid” bilan tamomlagan. Zehni ótkir talabalar madrasani 6-7 yilda tugatganlar. Kitob bizning hozirgi hayotimizdir. Chunki yosh avlodning har tomonlama shakllanishida kitob mutolaasining órni beqiyosligini, kitobxonlik madaniyatini oshirish dolzarb ekanligini inobatga olib, Ózbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yanvarda “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bóyicha komissiya tuzish tóórisida”gi farmoyishi qabul qilindi.

Mazkur hujjatda aholining keng qatlamini kitob óqishga jalb etish, kitob óqish va kitobxonlikni targ‘ib etish, voyaga yetgan farzandlarimizni boócha yoshidan boshlab kitobga mehrli qilib tarbiyalash, kitob mahsulotlarining mazmuniga e’tibor berish, ularni chop etish sifatini yaxshilash, turli mazmundagi kitoblar bilan kitob dókonlarini tóldirish, kitoblar fondini yanada boyitish kózda tutilgan. Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqib davlatimiz rahbari yurtimizda 2017-2021 yillarda Ózbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yónalishi bóyicha



harakatlar strategiyasi asosida jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarini chuqur qaror toptirishga, xalqimiz ayniqsa unga madad beradi.

Jahon adabiyotida tasvirlangan siymolar, turli qarashlarning to'qnashuvi, inson hayotining rang-barang qirralari, inson ruhiy omili, ichki kechinmalari-shodligi va qayg'usi, sevinch va ókinchi, mehr va qahri bor murakkabliklari bilan tasvirlangan yozma asarlar madaniyatshunosni ham hayotiy, ilmiy-nazariy boyitadi. Chunki, kitob insoniyat ijodiyotining chinakam hayratlanarli va e'tiborga loyiq kórinishi hisoblanadi. Kitoblarda kechmish zamonlarning aql-idroki yashaydi, hoki tuproqlari tush singari allaqachonlar to'z'gib ketgan odamlarning ovozi burro va aniq yangrab turadi. Zero, insoniyat yaratgan, qayta-qayta óylab kórgan va u erishgan narsalarning bari xuddi sehrli sandiqday kitoblar sahifasida saqlanib qolgan. Uzoq asrlardan bizgacha yetib kelgan madaniyat durdonalari, tafakkur kemalari bólgan kitoblar hikmatlar xazinasi ekanligi haqida ajoyib fikrlar aytilgan.

Arab mutafakkiri Abu Usmon al-Johiz kitobning eng birinchi mójiza ekanligi haqida bunday deydi: "Kitob - ajoyib suhbatdosh, bilim manbai, ajoyib qurol, qilich bilan olinmagan joyni kitob egallaydi. Kitob - eng yaxshi shifo, rohatbaxsh dori, sodiq dóst va aziz mehmon. Kitob - eng yaxshi maslahatchi va oila ázosi. Kitob - arab shifokori, Rumdan, Shomdan, Hind va Fors, Yunonistondan kelgan dóst. Kitob sababli qadimgi narsalar yangi, óliklar tirik, soqovlar sózlovchi bólib qoladi. Kitob - shunday bo'gu bóston bahavo joylarki, mevalaridan yeb, yana yeng ichida bo'g va ótloqlarni uyingga olib ketasan. Kitob eng yaxshi qóshni, sodiq dóst, adolatli hakim, mehribon ustoz".

Adabiy ijodiy jarayonlardan yaxshi xabardor bólish, davr qahramonlarining ichki kechinmalari, turmush tarzi va óy-óamlari tasvirlangan asarlarni bilish har bir madaniyatli kishi uchun zarur. Adabiyot-hayot, davr kózgusi. Kishi zamon, ijtimoiy hayot, davr bilan bo'gliq ekan, u zamondoshlarining kimligini, ularning hayoti, óy-niyatlarini bilish uchun ham shu «kózgu»ga tez-tez nazar tashlab turishga majbur. Yoshlar mánaviyatini yuksaltirish ular órtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bóyicha tizimli ishlarni yólga qóyishga qaratilgan. Chunki, bugungi tezkor jarayonda kitobxonlik madaniyatining susayishi, óz navbatida aholi savodxonligi darajasini pasayishi jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishi uchun katta tahdidlardan sanaladi. Shuning uchun ham bu salbiy holatni oldini olishga qarshi qat'iy chora tadbirlar kórilishi har qanday tahdidlarni oldini olishga yordam beradi. Masalaning yana bir muhim jihati borki, har qanday shaxsda kitob óqish va kitobxonlikka ijobiy munosabatni qaror toptirish óz ózidan róy bermaydi. Buning uchun har bir shaxsni maktabgacha tálim yoshidan boshlab, kitoblar bilan



tanishtirish, ularning jamiyat va inson hayotidagi ahamiyati, amaliy qiymatini tushunishlari uchun zarur pedagogik shart sharoitlarni yaratish lozim. Chunki, kitoblarda, insoniyat tajribasi, oldingi avlodlarning hayotiy tajribalari mavjuddir.

Bugungi kunda esa kóp asrlik maslahatlardan foydalanmaslik hatolikdir. Agar biz bugun kitoblarga murojaat qilib, óqimasak, hayotimizni noldan boshlasak ham, million marotaba qilgan barcha hatolarni yana takrorlayveramiz. Ózbekistonda Uchinchi Renessans avlodlari tarbiyalanayotgan bugungi davrda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish borasida kóplab ishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari tákidlaganidek, Uchinchi Renessans avlodlari yangicha fikrlaydigan, yetuk salohiyatga ega, ilmiy yoshlar bólishi shart. Shunday ekan, tálim sifatini kafolatlovchi sinalgan yóllardan biri - bu kitobxonlikdir. Dunyo olimlari tadqiqotlari orqali e'tirof etilishlaricha kitob óqish va uning foydasi haqida quyidagicha fikr bildiradilar:

Birinchidan: Kitob óqish inson umrini uzaytiradi. Vel Universiteti Sog'liqni Saqlash maktabi xodimlari óz xulosalarini e'lon qilganlarida, bu haqiqat fanga málum bóldi. Óqishning asosiy afzalligi miya hujayralari orasidagi aloqani mustahkamlashi, bu esa erta ólimga olib keladigan kasalliklar xavfini kamaytiradi.

Ikkinchidan: Kitob óqish stressni kamaytiradi. Olimlar va shifokorlar stress barcha inson kasalliklarining 60 foiz havf omili deb hisoblashadi. Buyuk Britaniyaning Sasseks Universiteti tomonidan ótkazilgan tadqiqotga kóra, óqish stressni 68 foizgacha kamaytirishi mumkin. Dam olish variantlari róyxatiga kitob óqishni qóshish juda yaxshi natija beradi. Uning ahamiyati shundaki, kitob tom mánoda inson ongini ózgartiradi va dam olishga yordam beradi.

Uchinchidan: Kitob óqish uyqusizlikni davolaydi. Kitob óqish uyquni yaxshilaydi hamda uyqusizlik va uyquchanlik órtasidagi ótishni susaytiradi.

Tórtinchidan: Kóplab ilmiy tadqiqotchilarning fikriga kóra, kitob óqish kognitiv funktsiyaning pasayishini, xatto Altsgeymer kasalligi kabi kognitiv buzilishning og'ir shakllarini oldini oladi.

Beshinchidan: Kitob bu tom mánoda bilim manbaidir. Kitob óqish orqali bizning bilimimiz ortib boradi. Shu bilan bir qatorda mamlakatimiz va boshqa davlatlar madaniyati, tillari, tarixi, kasbiy mahorat, moliyaviy savodxonlik, sog'lom turmush tarzini olib borish kabi qator masalalarni kitob orqali bilib olish mumkin.



Adabiyotlar:

1. Ózbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bóyicha kompleks chora tadbirlar to‘grisida”gi (2017 yil 13 sentyabr) Qarori.
2. Malik Murodov. Ózbek qadriyatlari.T. “Chólpon”1995.132b.
3. Rizouddin ibn Faxriddin.Nasihati.T.”Chólpon”.1993.12b.
4. Kitob uz. sayti.
- 5.Збаровская Н.В. Формирование культуры чтения и общедоступных библиотеках. Дисс.канд.пед наук. 1997.157с.
6. Ibrat Sófizoda. T.. Sharq. 1999.112 b.
7. Umarov A. Mutolaa madaniyati, shaxs, jamiyat, taraqqiyot. T:Fan, 2004. 192 b.

